



ISSN 2010-6246

ILM
SARCHASHMALARI
ILMIY-NAZARIY, METODIK JURNAL

Science Top Sources
Scientific-theoretical, methodical journal

2025.4

www.ilm.sarchashmalari.uz



Холова Умида (научный сотрудник Бухарского государственного университета;
УДК:0009-0003-3624-3477)

НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИДЕЙ ПРОСВЕЩЕНИЯ В ЗАПАДНОЙ ФИЛОСОФИИ

Аннотация. В данной статье рассматривается процесс возникновения и развития просветительского движения в истории западной философии, охватывающий несколько исторических эпох, начиная с исчезновения интеллектуальных и культурных влияний Средневековья, что является основой для дальнейшего научного анализа.

Ключевые слова: просветительство, схоластика, ренессанс, гуманизм, моральность, просвещённость, идея, оптимизм, анализ.

Xolova Umida (Researcher of Bukhara State University; ORCID:0009-0003-3624-3477)

THE SCIENTIFIC AND THEORETICAL FOUNDATIONS OF ENLIGHTENMENT IDEAS IN WESTERN PHILOSOPHY

Annotation. This article analyzes the process of the emergence and development of the Enlightenment movement in the history of Western philosophy, covering several historical periods, starting with the disappearance of the intellectual and cultural influences of the Middle Ages, which serves as the basis for further scientific analysis.

Keywords: Enlightenment, scholasticism, Renaissance, humanism, Hegel, I.Kant, enlightenment thought, idea, optimism, analysis.

Kirish. G'arb ma'rifatparvarlarining aql va ilmga tayanishga da'vatlari ularning inson aqlini asosiy kuch deb bilishlari muhim ahmiiyatga ega bo'lgan. Inson huquqlari vijdon erkinligi, shxsiy erkinliklar ma'rifatparvarlar faoliyatining markazi bo'lgan. Bilim tarqatish tarbiya orqali jamiyatda adoalt, taraqqiyot va tinchlikka erishish mumkinligini asoslashga harakat qilganlar. G'arbiy Yevropada ma'rifatchilik g'oyaviy oqim sifatida madaniyat taraqqiyotining muayyan bosqichi bo'lgan ma'rifat davri bilan bir xil vaqt oralig'iga to'g'ri keladi. Gumanizm Frensis Bekon, Nikolay Kopernik va Galileyning amaliy fanlarning asoslarini va Rene Dekart, Gotfrid, Vilgelm, Leybnits va Isaak Nyuton esa matematik tadqiqotlarni yaratdi. Uyg'onish davri klassik madaniyatning ko'p qismini qayta kashf etdi va insoniyatning ijodiy va ilohiy mavjudot haqidagi tushunchasini o'zgartirdi. Martin Lyuter uchun Bekon yoki Dekart kabi, haqiqatga yo'l inson aql-idrokidan foydalanishi natijasida angalanadi, degan g'oya mavjud edi. Ma'rifatchilikning xronologik doiralari kelsak, bu yerda ham yakdil fikr yo'q. Bunda V.F.Pustarnakov, G.V.Plexanov va boshqalar insoniyat tarixida bunday ma'rifatparvarlik davrlari ko'p bo'lganligini uqdiradi. R.T.Eymontova, A.G. Kuzmin bu tushunchalarni nafaqat semantik, balki geografik jihatdan ham farqlaydi. Ma'rifatchilik davrida jamiyat qonuniyatlari va jamiyat taraqqiyotining o'ziga xos xususiyatlarini insonlarning moddiy turmush sharoitlari bilan uyg'unlashtirishga harakat qilindi. Ma'rifatparvarlar axloqiy, ijtimoiy g'oyaga intilar edilar.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Russo "Ijtimoiy shtrnoma" asari xalq suverentetini adolatli jamiyat barpo etishni ijtimoiy shtrnoma asosida qilish kerakligini ilgari suradi. Wolterning "falsafiy lig'at", Monteskining "Qonunlarning ruhi to'g'risida"gi asarlari ham o'z davrining eng muhim manbalaridan biridir. Mening yoqlayotgan optimizm nazariyasi shundan iboratki, barcha muvaffaqiyatsizliklar, barcha yomonliklar – yetarli bilimning yo'qligidan kelib chiqadi. Muammolar doimiy bo'ladi, chunki bizning bilimimiz hech qachon to'liq bo'lmaydi. Ba'zi muammolar murakkab, lekin murakkab muammolarni hal qilinishi dargumon bo'lgan muammolar bilan aralashtirib yuborish xato bo'ladi. Muammolar yechimlidir va har bir konkret yomonlik hal qilinadigan muammoga aylanadi. Undan tashqari, ma'rifat o'z mohiyatiga ko'ra bir qarshilik harakatidir. Bu jarayonda din, an'anaviy tabiiy qarashlar, jamiyat va davlat tuzumi tanqid qilinadi. Har bir narsa o'z mavjudligini aqlning hakam kursisida isbotlashi yoki aqlning rad etishiga rozi bo'lishi kerak edi [1;21-b.]. I.Kant (1724–1804) ma'rifatni insonning voyaga yetmaganlik holatidan chiqishi deb ta'riflagan [2;29-b.]. Gegel ma'rifatchilikni XVIII asrdagi madaniy va ma'naviy hayot sohasidagi ratsionalistik harakat mavjud bo'lgan boshqaruv usulini, davlat tuzumini, siyosiy mafkurani, huquqni va sud ishlarini yuritishni, dinni, san'at, axloq tizimlarini takomillashtirish deb ta'riflagan [3;34-b.]. Ma'rifat davri falsafasining asosiy g'oyalarini belgilab berdi, keyinchalik, demokratik jamiyat, ilmiy taraqqiyot va huquqiy davlat tamoyillarining shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatdi. Ma'rifat davrining keng ko'lamli ta'sirini va insoniyat rivojidadagi ahamiyatini ko'rsatadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mavzuga oid tarixiy manbalar ustida ishlash, tarixiylik, matiqiylik, analiz va sintez, qiyosiy tahlil, xoroijiy tildagid adabiyotlarni tarjima qilish uslublaridan foydalanildi.

Talqin va natijalar. Foma Akvinskiy ijodi sxolastika deb nomlanuvchi tafakkur tizimini insoniyatning aqlini idrokini olamni anglash vositasi sifatida qayta tiriltirdi. Xristianlik dinidagi vahiyilar oliy haqiqatni o'z ichiga olganligi sababli, Foma Akvinskiy insoniyatning aql salohiyatini ilohiy qonunga unga zid bo'lmagan holda bo'ysundirishga urindi. Ma'rifatning kelib chiqishi Renessans davrida amalga oshirilgan katta sayohatlar va bu sayohatlar natijasida amalga oshirilgan geografik kashfiyotlar, yozilgan sayohatnomalar va yuzaga kelgan ilmiy rivojlanishlar "cherkov"ning haqiqatlariga qarshi ishonchsizlikni boshlagan edi [4;307-b.].

Garchi bu asr yorqin kashfiyotlarga, prinsipial novatorlik g'oyalariga boy bo'lmagan degan fikr mavjud bo'lsa-da, "aql asri" falsafasining o'ziga xos jihatlari va bir qancha yutuqlari ham bor edi. Ma'rifatparvarlik antifeodal sifatida o'z mohiyati bilan burjuaziya mafkurasi feodal tuzumning yemirilish sharoitlarida paydo bo'lgan edi. Biroq ma'rifatparvarlik harakati nafaqat ijtimoiy iqtisodiy shart sharoitlarni, balki millatlarning shakllanish jarayoniga hammuayyan darajada ta'sir ko'rsatdi. I.Kant, quyidagi taklifni ilgari surdi.

Ma'rifat nima degan savolga javob? nomli maqolasida ma'rifatni insoniyat taraqqiyotining zarur tarixiy davri bo'lib, uning mohiyati inson aql-idrokidan ijtimoiy taraqqiyotni amalga oshirish degan fikrni ilgari surgan. Ma'rifatning shiori, I.Kant ta'kidlaganidek: "Tushunishga jur'at et!" bo'lib, uning asosiy talabi erkin fikrlash va erkin so'zlash huquqidir. Xuddi shu g'oyaning XXI asrda bildirilgan bir ifodasi fizik Devid Dyoychning ma'rifatni himoya qilgan "The Beginning of Infinity" ("Cheksizlikning boshlanishi") asarida topilishi mumkin. Dyoych, agar tushunishga jur'at qilsak, ilmiy, siyosiy va axloqiy sohalarida taraqqiyot qilish mumkin, deb ta'kidlaydi:

I.Kantning fikricha, ma'rifat uchun faqat erkinlik va har qanday holatda ham o'z aql-idrokidan ommaviy foydalanish mumkin bo'lgan erkinlik talab qilinadi. Shuningdek, I Kant ommaning o'zi ana shunday erkinlik bilan o'zini-o'zi ma'rifatli qilishi mumkin, deb hisoblaydi. Chunki olomonning tepasida turgan va siylar orasida ham mustaqil fikrlaydigan odamlar topiladi, ular o'zlaridan balog'atga yetmaganlik yukini olib tashlab, atrofga o'z qadr-qimmatini oqilona baholash ruhini va har bir kishini mustaqil fikrlashga undashni targ'ib qiladilar [5;29-b.]. Demak, yetuk bo'lmashlikning sababi aqlda emas, balki o'z aqlini ishlatishga jur'at eta olmaslikda, ishlatish qarorini qabul qila olmaslikda, ya'ni insondadir [6;25-b.]. I.Kantning ma'rifat to'g'risidagi qarashlarining tub mohiyatida erkinlik masalasi, shu bilan birga, insonning aql-idrokidan mustaqil ravishda foydalana olish xususiyatlari yaqqol seziladi. Binonbarin, ma'rifat davrining mutafakkirlari insoniyat holatini yangicha tushunishga intildilar. Bu davrda ko'plab g'oyalar tug'ildi, ba'zilar bir-biriga zid bo'lsa-da, ularni to'rt asosiy mavzu bog'lab turdi: aql, ilm-fan, gumanizm va taraqqiyot [7;8-b.].

XVIII asrdan boshlab keng tarqalgan va keyingi asrda esa ta'sirlari sekin-sekin ko'zga tashlana boshlagan. Ma'rifatparvarlik harakati Renessans va islohot bilan boshlangan ijtimoiy va fikriy g'oyalarning amalda qo'llanilishini va har bir insonning bunga rioya qilish majburiyatini namoyon etishga urinishidir [8;8-b.].

I.Kant singari Gegel ham ma'rifatchilikning eng xarakterli xususiyati inson qadrini qaror toptirish ekanligini e'tirof etgan [9;440-b.]. Darhaqiqat, ma'rifat davri mutafakkirlari insonni borliqda markaziy o'ringa qo'yib, uning ongli qarorlar qabul qilish va o'z hayotini yaxshilashdagi rolini ta'kidlaydilar. Shunday qilib, ma'rifat falsafasi inson erkinligi, aql-idrokni rivojlantirish va jamiytdagi har bir shaxsning qadrini e'tirof etish g'oyalariga asoslanadi.

G'arbiy Yevropada ma'rifatchilik g'oyaviy oqim sifatida madaniyat taraqqiyotining muayyan bosqichi bo'lgan ma'rifat davri bilan bir xil vaqt oralig'iga to'g'ri keladi. Bu yangi hayot tarzining va madaniyatning umumiy xususiyatlari quyidagicha ifodalanishi mumkin:

1. Din asosli tushuntirish tizimi o'rni aqlga asoslangan tushuntirishlar va asoslantirishlarga bo'shatib berdi. Aqlning oldingi o'ringa chiqishi bilan tanqidiy yondashuv rivojlangan, an'anaviy qadriyatlar va institutlar savolga tutilgan. Hammaning o'lchovi bo'lgan Xudo yoki cherkov inkor qilingan va inson aqli markaziy o'ringa keltirilgan. Insonning o'lchov sifatida qabul qilinishi nisbiy yondashuvlarning ko'payishiga sabab bo'ldi.

2. Inson va madaniyat masalalari asosiy mavzuga aylangan.

3. Metafizik fikrlar ishlab chiqarish o'rniga, sezgi va tajribaga asoslangan fikrlar hukmron bo'la boshlagan.

4. Davlat, din va jamiyat kabi ijtimoiy hayotni belgilovchi tushunchalar aql tomonidan qayta talqin qilingan.

5. Ma'lum bir qatlam va cherkovning hukmronligidan ozod etilgan bilim va ishlab chiqarilgan nazariy bahslar jamiyatning keng qatlami tomonidan kuzatila boshlagan va bunga bog'liq holda ijtimoiy ong o'sgan [10;22-b.].

Yevropada boshlangan va har jihati bilan "yangilikni o'z ichiga olgan bu madaniy, diniy, ilmiy, falsafiy, siyosiy va ijtimoiy harakat va o'zgarishning asosida dunyoviy (sekular) bir qarash hukmron bo'lgan. Ma'rifatning ham ushbu "sekularlik"ni o'ziga nafaqat uslub, balki maqsad sifatida ko'rganini va bu "sekularlik"ni qabul qildirish maqsadida harakatda bo'lganini aytish kerak. Amaliyotda o'zini namoyon qilma-gan ma'rifat, haqiqiy ma'rifat bo'lolmaydi. Harakat zarurati tufayli ham ma'rifat bir turmush tutumidir: insonning o'ziga ishonib, o'zini ro'yobga chiqarishi, mavjud bo'lganidan ko'ra oldinga va mukammalroq bo'lgan narsaga erishishi, hayotini rivojlanayotgan bir jarayon holatiga keltirish yo'lida harakat qilishi hisoblanadi. Ma'rifatning mohiyatidagi va uslubidagi "sekularlik" har jihati bilan harakatchan bir uslubda mavjud bo'lgan. Ma'rifatparvar mutafakkirlarni birlashtirgan asosiy narsa, bu dunyoni tushunishda aql me'yorini faol qo'llashga bo'lgan ishonch edi va ular o'z tasavvurlarini xurofot keltiruvchi omillarga, masalan, e'tiqod, dogma, vahiy, hokimiyat, karizma, mistika, folbinlik, tush ko'rish, ichki his-tuyg'u yoki muqaddas matnlarni nozik tahlil qilishga asoslanmaslik talab qilindi [11;8-b.].

Gegelning ma'rifatparvarlik haqidagi mashhur ma'ruzalarida "Ma'rifat odam sog'lom aqlining aniq, ishonarli haqiqatlari" faylasuflar haqida esa "buyuk daho, hissiyotning issiqligi, aqlning otashinligi va mardlik"ning namoyon bo'lgan kishilar haqida so'z boradi [12;441-b.].

G'arb falsafasining asosiy jihatlaridan biri aql ko'pchilik ma'rifat davri mutafakkirlarini insoniy xususiyatlarga ega va insoniy ishlar bilan qiziqadigan Xudoga bo'lgan e'tiqoddan voz kechishga olib keldi.

Monteskiy fikriga ko'ra, "Agar uchburchaklarning Xudosi bo'lsa, ular unga uch tomoni bor shakl berishar edi. Shunga qaramay, barcha ma'rifat mutafakkirlari ateist emas edi. Ba'zilar deistlar edi (teist-lardan farqli ravishda). Ular Xudo koinotni harakatga keltirib, keyin tabiat qonunlariga muvofiq rivojlani-shiga imkon berib, chetda turgan deb hisoblashgan. Boshqalari esa panteistlar edi va Xudo atamasini tabiat qonunlariga sinonim sifatida ishlatishgan [13;8-b.]. G'arb falsafasining o'ziga xos jihatlaridan biri, ilm-fan rivojlanishi bilan, Xudo tushunchasi ko'plab olimlar tomonidan inkor etiladi yoki yangi ilmiy qarashlar bilan izohlanadi. Yangi ilmiy nazariyalar, masalan, evolutsiya nazariyasi, Xudo mavjudligi masalalariga yangi jihatdan yondashishga olib keladi. Ma'rifat falsafasida Xudo tushunchasi har doim muhim mavzu bo'lib qolgan va u ko'plab fikr va talqinlar orqali rivojlanishda davom etmoqda. Bu davrda Xudo masalasi nafaqat diniy, balki falsafiy, ijtimoiy va madaniy ahamiyatga ega bo'lib, insoniyat hayoti va axloqiy qad-riyatlar bilan bog'liq ravishda keng muhokama qilinadi.

I.Kant tomonidan qo'yilgan masala "ma'rifat" va "ma'rifatparvarlik" tushunchalarining o'zaro mu-nosabati hozirgacha bahs-munozaralarga sabab bo'lmoqda. Ma'rifatparvarlik harakati uzoq vaqt davom etgan va o'z ichida chuqur muammolarni boshdan kechirgan Yevropa jamiyatining erishgan bir davrini tas-virlaydi. Ijtimoiy hayot va savdo hayotidagi muhim o'zgarishlar natijasida fan va falsafa sohasida bilim ishlab chiqarish va usuli sezilarli darajada o'zgargan. Natijada "ratsional" fikrlash an'anasi Yevropada har bir sohada o'zini ko'rsatgan. Bu yerda "ratsional" fikrlashning asosini insonning o'zini rivojlanishdan to'x-tatadigan har qanday holatdan qutulishi va hayotini aql nurida qurishi sifatida tushunish mumkin.

Bir qator ishlarda ushbu tushunchalar sinonimmi yoki yo'qmi degan muammo muhokama qilinadi. Ammo ko'plab mualliflar ma'lumotlarni chegaralaydilar, tushunchalarni va ularning nuqtayi nazarini shartli ravishda bir necha guruhlariga ajratish mumkin. Birinchi guruh ko'rib chiqilganlarning ko'pchiligini tashkil qiladi I.I.Leshilovskaya, A.P.Valitskaya, N.P.Berkov va boshqa tadqiqotchilar fikricha, ma'rifat ya-angi madaniyatni shakllantirish jarayonidagi muayyan tarixiy tipdagi bosqichdir. Boshqa bir guruh olimlar esa ma'rifatparvarlik obyektiv-burjua mafkurasi ekanligiga ishonadilar. Ma'rifatchilik ijtimoiy ongning bir turi degan fikrlar ham mavjud.

Xullas, ma'rifatparvarlik bu muayyan tarixiy davrning feodallikka qarshi yo'nalganligi, intilishi bi-lan xarakterlanadigan mafkuraviy oqimi ijtimoiy adolatsizlikni, cherkov jaholatini, falsafiy mistitsizmni tag-tomiri bilan yo'q qilish tarafdorlari bo'lgan. Ma'rifatchilik kengroq tushuncha bo'lib, u, o'z navbatida, uning tarkibiy qismi bo'lgan ma'rifatning o'zini ham o'z ichiga oladi [14;35-b.].

Ma'rifatchilikning xronologik doiralarga kelsak, bu yerda ham yakdil fikr yo'q. Bunda V.F.Pustar-nakov, G.V.Plexanov va boshqalar insoniyat tarixida bunday ma'rifatparvarlik davrlari ko'p bo'lganligini uqtiradi. R.T.Eymontova, A.G.Kuzmin bu tushunchalarni nafaqat semantik, balki geografik jihatdan ham farqlaydi. Ma'rifatchilik davrida jamiyat qonuniyatlari va jamiyat taraqqiyotining o'ziga xos xususiyatlarini insonlarning moddiy turmush sharoitlari bilan uyg'unlashtirishga harakat qilindi. Ma'rifatparvarlar axloqiy, ijtimoiy g'oyaga intilar edilar.

Chunonchi, jamiyatda shaxs va jamiyatning o'z manfaatlarini uyg'unlashgan, butun jamiyat adolatli bo'lgan bo'lar edi. Ma'rifatparvarlar bunday g'oyaga xalq ommasini o'qitish, tarbiyalash, ma'rifatli qilish orqali erishish mumkin deb hisoblaganlar. Ularda shunday ideal jamiyat qurish mumkinligiga qat'iy ishonch mavjud edi. Ammo buning uchun siyosiy va ijtimoiy tuzumni o'zgartirish talab qilinardi. Ana shu sabablarga ko'ra, ma'rifat davri utopiyaning oltin asri nomini oldi. Aynan shu davrda ideal jamiyat haqida hikoya qiluvchi ko'plab adabiy, publitsistik asarlar yaratildi. Ma'rifatparvarlar inson tabiatining barcha xususiyatlari uning yashash muhiti, shuningdek, uni o'rab turgan sharoitlar bilan tushuntirilishi muhim ekanligi to'g'risidagi fikrlar etarlicha hukm surgan. Shuning uchun ma'rifatparvarlar yetuk inson uchun sharoit yaratish ustida bosh qotirganlar. Ularning ideali uyg'un inson edi. Erkinlik, birodarlik, tenglik, baxt-saodat, odamlarning farovonligi, jahonda zo'ravonlik qilmaslik bu davrning oliy maqsadi bo'lib qolgan edi.

Demak, Xulosa qilish mumkinki, ma'rifat tushunchasining ildizlari turli sarchashmalardan bahramand bo'lgan:

1. Diniy ildizlar "ma'rifat" tushunchasi, asosan, diniy ma'noda ishlatilib, ilohiy haqiqatni anglash, Allohni tanish va unga yaqinlashishni ifodalagan. Islom madaniyatida ma'rifat Allohning ilmiga intilish, ilohiy haqiqatlarni bilish orqali ruhiy poklanishga erishishni maqsad qilgan. Bu tushuncha tasavvufda "ma'rifat" sifatida ifodalanib, Allohni qalb bilan idrok qilish g'oyasini o'z ichiga olgan.

2. Ilmiy-falsafiy rivojlanish. Islom madaniyati rivojlanishi jarayonida "ma'rifat"ilm-fan va aqlni rivojlantirish bilan bog'langan tushunchaga aylangan. U ilm olish va haqiqatni izlash orqali aqlning kuchini namoyon etish sifatida tushunila boshlandi. O'rta asrlarda Markaziy Osiyoda Beruniy, Forobiy, Ibn Sino kabi olimlar ma'rifatni ilmiy izlanishlar orqali haqiqatga yaqinlashish yo'li deb bilganlar.

3. Yevropada ma'rifatparvarlik davri. XVIII asrda Yevropada ma'rifatparvarlik davri boshlandi va bu tushuncha keng ma'noda shakllana boshladi. Bu davrda "ma'rifat" inson aqlini rivojlantirish, fan va texnikani taraqqiy ettirish orqali jamiyatni rivojlantirish g'oyasi bilan uyg'unlashdi. Bu yangi qarashlar nafaqat Yevropada, balki boshqa mintaqalarda ham keng tarqaldi va ta'sir qildi.

4. Zamonaviy ma'rifat tushunchasi. Bugungi kunda "ma'rifat" tushunchasi ilm olish, dunyoqarashni kengaytirish, ma'naviy rivojlanish, zamonaviy bilimlarga ega bo'lish kabi keng qamrovli ma'nolarga ega. Ma'rifat nafaqat diniy yoki milliy boylik, balki global ilmiy va madaniy taraqqiyotning asosi sifatida qadrlanadi. Umuman olganda, ma'rifat tushunchasi insoniyatning bilishga, rivojlanishga va komillikka intilishi natijasida shakllangan va turli davrlar hamda madaniyatlarda yangicha ma'nolar bilan boyib kelgan.

Bugungi kunda Yangi O'zbekistonda ilm-fan va ma'rifat juda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ma'rifat zamonaviy Yangi O'zbekiston jamiyatining ma'naviy va madaniy rivojlanishida, yosh avlodni tarbiyalashda va bilimli hamda yuksak malakali kadrlarni tayyorlashda eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Zotan, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "O'zbekistonni rivojlangan mamlakatga aylantirishni maqsad qilib qo'ygan ekanmiz, bunga faqat jadal islohotlar, ilm-ma'rifat va innovatsiya bilan erisha olamiz" [15]. Darhaqiqat, O'zbekistonda ta'lim tizimini isloh qilish va ta'lim sifatini oshirish borasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar ma'rifatning muhimligini yana bir bor namoyon etadi. Ma'rifatdan uzoqlashgan jamiyatning halokati muqarrar. Bugun o'zbek xalqi mustaqil taraqqiyot yo'lini tanlab, jahon hamjamiyatiga o'zining boy tarixi, ma'naviy xazinasini bilan qo'shilayotgan ekan, bu yo'nalishda ma'rifatning salmog'i beqiyos. Shu bilan birga, milliy qadriyatlarni saqlash va zamonaviy dunyo bilan hamnafas bo'lish orqali o'zlikni anglash va rivojlanishning o'ziga xos yo'li shakllanmoqda. Ma'rifat tushunchasi insoniyat tarixida muhim ahamiyat kasb etibgina qolmay, jamiyatni rivojlantiruvchi asosiy kuch hisoblanadi. O'zlikni anglashning eng yaqin va to'g'ri yo'li hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Necip U. Aydinlanma felsefesinde ilerleme düşüncesi ve etkileri diyarbakir. 2006, s. 21.
- (2). И.Кант. Ответ на вопрос. Что такое просвещение? 1784. Кант, Иммануил. Собр.соч. в 8 тт. М., Чоро, 1994, т. 8, с. 29.
- (3). Д.Ш.Цырендоржиева, А.Ц.Батыева. Просвещение и просветительство: сущность и отличительные черты Вестник бурятского государственного университета 14/2013, с. 34.
- (4). Baykan E.Dine eleştirel yaklaşımlar: aydınlanma ve din. Yüzüncü yıl üniversitesi sosyal bilimler enstitüsü dergisi. 2001, s. 307.
- (5). Кант.И. Ответ на вопрос. Что такое просвещение? 1784. Кант, Иммануил. Собр.соч. в 8 тт. М., Чоро, 1994, т. 8, с. 29.
- (6). G.Macit.Aydinlanma Felsefesi, devrimler ve Atatürk. Cumhuriyet, 1997, s. 25.
- (7). P.Steven. Enlightenment now the case for reason, science, humanism, and progress. New York, 2018, p.8.
- (8). Necip U. Aydinlanma felsefesinde ilerleme düşüncesi ve etkileri. Diyarbakir, 2006, s. 8.